

# Farg'ona haqiqati

**Bosh hamkor** – Farg'ona viloyati hokimligi

<http://farhaqiqat.uz/>  
[t.me/farhaqiqati](https://t.me/farhaqiqati)

**№ 81 (24678)**



## ИНСТИТУТНИНГ ЯНГИ БИНОСИ Фойдаланишга топширилди

**Ф**аргона жамоат саломатлиги тиббиёт институти янги биносининг очилиш маросими катта тантананага айланди. Унда сўзга чиққан вилоят ҳокими Хайрулло Бозоров ва Соғлиқни сақлаш вазири Бехзод Мусаев мамлакатимизда тиббиёт соҳасига малакали кадрлар тайёрлашга алоҳида эътибор берилганини таъкидлаб, институт талабалари келажакда оқибатига содиқ шифокор сифатида аҳолига сифатли тиббий хизмат кўрсатишда ибрат бўлажакга умид билдиришди. Соҳага доир ислохотларни муваффақиятли амалга ошириш, ўқув-тарбия жараёнига миллий ва илғор хорижий тажрибалар, инновацион педагогик ва ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш ишларига қўшган

муносиб ҳиссаси учун бир гуруҳ мутахассислар "Соғлиқни сақлаш аълочилиси" кўкрак нишони билан тақдирланди. Тадбирдан сўнг талабалар учун яратилган шароитлар билан яқиндан танишилди. Кампус қурилишидаги замонавий кўриниш, пухта ўйланган архитектура, гўзал табиат манзараси, ўқув жараёни учун яратилган қўлайликлар талабаларнинг сифатли таълим олиши учун барча шароитлар муҳайё қилинганини кўрсатди. Эндиликда Фаргона жамоат саломатлиги тиббиёт институти 3 та ўқув биноси, симуляция маркази, виварий, илмий лаборатория, 500 ўринли анжуманлар залига эга бўлиб, унинг моддий-техник базаси дунё стандартлари асосида шакллантирилди.

Гўзал ОХУНОВА.  
Элёр ОЛИМОВ олган суратлар.

"Кўзингиз лочинникидек ўткир, қўлингиз пахтадек майин, юрагингиз шерникидек кучли ва бақувват бўлсин". Буюк аждодимиз Абу Али ибн Сино айтган бу сўзлар тиббиёт ходимларининг, талабаларнинг қалбига яна бир бор акс-садо берди.



## МАЪНАВИЯТ ВА МАЪРИФАТ МАСКАНИ ЯНА БИТТАГА КўПАЙДИ

Фаргона вилоятида сўнгги икки йил ичида 8 та замонавий Маънавият ва маърифат масканлари иш бошлади. Қувасой шахрида барпо этилган ана шундай масканнинг очилиш маросими катта тантананага айланди.

**М**азкур Маънавият ва маърифат маскани талаблар асосида жиҳозланиб, унда турли танловлар, маънавий-маърифий тадбирлар, ижодий учрашувлар, китоб тақдиротлари ўтказиш учун барча шароитлар яратилган. Ижодий-маданий масалалар бўйича тарғиботчилар, ҳунармандлар учун хона ажратилган. — Қувасойликларга яратилган қўлайлик ва имкониятлар шаҳарда маънавий-маърифий соҳани янги босқичга олиб чиқишга хизмат қилади, ижодкор ёшлар учун мулоқот майдони бўлади. Жумладан, 30 миңдан ортиқ китоб фондига эга кутубхона китобхонлар ихтиёрида, — дейди Республика Маънавият ва маърифат маркази Фаргона вилоят бўлими раҳбари Маъсуджон Сулаймонов.

## ДЕҲҚОННИНГ ҲОСИЛДАН КўНГЛИ Тўқ



Куз тонги. Еру кўкка қуёш заррин нурларини сочади. Ердан ҳали нам кўтарилмаган бўлса-да, далаларда иш қизғин. Ҳазоррезги мавсум бободоҳқонга "ҳосилингни тезроқ тер", дегандек кунларнинг эрта-индин совий бошлашига ишора қилади.

**К**ўшпелик миришкор "Сайид Иброҳим ота" фермер хўжалиги раҳбари Зокирхон ақанин бу йилги пахта ҳосилидан кўнгли тўқ. Фермер бу йил 33 гектар майдонда пахта 115 тонналик шартнома режани ортиги билан бажариш арафасида турибди. Теримчилар биринчи терим ҳосилини теримокда. Хўжалик аъзолари ҳосилни ёгин-сочин кунларга қолдирмай йиғиб олиш мақсадида. Терим ишларига асосан аъзолар жалб этилган бўлса, ихтиёрий равишда маҳалладаги муайян меҳнат билан банд бўлмаганлар ва кўнглили хашарчилар ҳам фаоллик кўрсатмоқда. Улар учун иссиқ овқат ташкил этилиб, илғор теримчилар рағбатлантириб борилмоқда. — Ёшим 53 да. 27 йилдан буён пахта терман. Илгарилари терган пахтамининг пулини бир-икки ҳафта

кутишга мажбур бўлардик. Ҳозир терган пахтамининг ҳар килосига нақд пул олаёلمиз, — дейди кунда 100-120 килограммдан пахта тераётган теримчи Мақсудахон Раҳмонова. — Ҳозирги шартнома режасини бажариш аввалгидек ўта машаққатли иш эмас, — дейди фермер хўжалик раҳбари Зокирхон Қодиров. — Чунки бизда уруғчилик, илм-фан йил сайин ривожланиб борапти. Қолаверса, мамлакатимизда пахта терими-га чиқиш мутлақо ихтиёрий. Теримчиларга ҳеч қандай талаблар қўйилмайди. Ҳашарда иштирок этаётган хотин-қизларнинг кўпчилиги ушбу мавсумдан фойдаланиб, кўшимча даромад топишяпти. Дарвоқе, мавсум ўзгача руҳда давом этмоқда. Яхши ҳосил ва об-ҳаво пахта хирмонлари тезроқ чош этилиб, ризқ-рўз баракали бўлишдан дарак бермоқда.

Мутаарр МАҲМУДОВА.



## ЯДРОВИЙ УРУШ МОЖАРОНИНГ ТАБИАТИНИ ЎЗГАРТИРИБ ЮБОРИШИ МУМКИН

"Украина можаросида ядро қуролидан фойдаланиш можаро табиатини бутунлай ўзгартириб юбориши мумкин", деб баёнот берди НАТО бош котиби Йенс Столтенберг якшанба кўни NBC канали эфиринда чиқиш қилганида.

Шимолӣ Атлантика альянси бош котибининг таъкидлашича, бундай тоифадаги қуролни ишга солиш ҳақида фикр юритишнинг ўзи хавфли ва оқибатини ўйламаслик бўлар эди. "Биз Президент Путинга айтганмиз, ядро қуролини қўллаш Россия учун ҳам оғир оқибатларга олиб келади ва табиийки, Украинадаги можаронинг табиатини ўзгартириб юборади", деди у.



## ТУРКИЯ ҚОРА ДЕНГИЗ ГАЗИНИ ЎЗЛАШТИРИШДА ЯНА БИР "КАТТА ҚАДАМ" ТАШЛАДИ

Туркия энергетика ва табиий захиралар вазири Фотих Донмезнинг таъкидлашича, Қора денгиз газини қазиб олиш бўйича "яна бир катта қадам ташланган". Ишлар жадвалдан оғишмаган ҳолда олиб борилмоқда, деган у.

Туркия Қора денгиздаги Сақаря газ қонида 540 миллиард кубометр газни қазиб олиш ва ташиш учун қарийб 10 миллиард АҚШ доллари жалб қилган бўлиб, режа бўйича илк қазиб олинган газ 2023 йилда истеъмолга етказилади. Донмезнинг маълум қилишича, Қора денгизда топиладиган газ миқдорининг нархи 400 миллиард АҚШ долларини ташкил этади.

## КОРОНАВИРУСГА ҚАРШИ ЯНГИ ЧОРАЛАР КУЧГА КИРДИ

Германияда коронавирус билан касалланишнинг ортиси фондида янги қоида кучга кирди.

1 октябрдан поездлар ва шаҳарлараро автобусларда энди оддий тиббий ниқоблар эмас, балки FFP2 респираторлари кийиш талаб этилади. Минтақавий транспортда қоидалар ҳудуд органлари томонидан белгиланади. Шу билан бирга, самолётларда ниқоб тақиш режими бекор қилинди.



## ПЕКИННИНГ ТАЙВАНГА БОСТИРИБ КИРИШ ТАҲДИДИ Йўқ

Қўшма Штатлар Хитойнинг Тайванга бевосита бостириб кириши хавфини кўрмаяпти, ammo Пекин томонидан янги воқеликлар яратишга қаратилган ҳаракатлар кузатишмоқда. Бу ҳақда Пентагон раҳбари Ллойд Остин "CNN" телеканалига берган интервьюсида айтиб ўтди.

"Биз иттифоқчиларимизга эркин ва очик Ҳинд-Тинч океани минтақасини сақлаб қолиш бўйича ёрдам бериш учун тегишли соҳаларда зарур имкониятга эга бўлган тарзда ишлашни давом эттирамиз", деди Остин. "Мен тезкорлик билан амалга оширилмаган босқинчилик таҳдидини кўрмайман. Биз сезаётганимиз шуки, Хитой янги норма, деб аталган тартибни ўрнатишга интиломда", қўшимча қилди Пентагон раҳбари.

ЎЗА.



## FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

### 2023-YIL UCHUN DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARI HISOBIDAN QUIYDAGI IXTISOSLIKLAR BO'YICHA TAYANCH DOKTORANTURA (PHD), DOKTORANTURA (DSC), MAQSADLI TAYANCH DOKTORANTURA (PHD) VA QUIYIDA KELTIRILGAN IXTISOSLIKLAR BO'YICHA MUSTAQIL IZLANUVCHILIK INSTITUTIGA HUJJATLAR QABUL QILISH BOSHLANGANLIGINI MA'LUM QILADI

№	Ixtisoslik shifri va nomi	Doktorantura (DSc)	Tayanch doktorantura (PhD)	Maqsadli tayanch doktorantura		Stajyor-tadqiqotchi
				DSc	PhD	
1.	01.01.01 - Matematik analiz	0	1	0	1 (Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti)	0
2.	01.01.02 - Differensial tenglamalar va matematik fizika	0	3	0	2 (Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Farg'ona filiali, Farg'ona politexnika instituti)	1
3.	01.01.03 - Hisoblash matematikasi va diskret matematika	0	3	0	0	0
4.	01.04.02 - Nazariy fizika	0	1	0	1 (Farg'ona politexnika instituti)	1
5.	01.04.10 - Yarimo'tkazgichlar fizikasi	0	1	0	1 (Farg'ona politexnika instituti)	1
6.	02.00.09 - Tovarlar kimyosi	0	2	0	3 (Farg'ona politexnika instituti)	0
7.	02.00.10 - Biorganik kimyo	1	2	0	0	0
8.	03.00.05 - Botanika	1	2	0	0	0
9.	03.00.06 - Zoologiya	0	3	0	0	0
10.	03.00.08 - Odam va hayvonlar fiziologiyasi	0	1	0	0	0
11.	03.00.13 - Tuproqshunoslik	0	1	0	0	1
12.	03.00.15 - Ixtiologiya	0	2	0	0	0
13.	06.01.07 - Mevachilik va uzumchilik	0	3	0	0	0
14.	06.01.08 - O'simlikshunoslik	0	2	0	0	1
15.	06.02.03 - Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi	0	1	0	0	0
16.	07.00.01 - O'zbekiston tarixi	0	5	1 (Namangan davlat universiteti)	2 (Namangan qurilish muhandislik instituti, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti, Namangan davlat universiteti, Farg'ona politexnika instituti)	0
17.	07.00.02 - Fan va texnologiyalar tarixi	0	1	0	0	0
18.	07.00.03 - Jahon tarixi	0	1	0	0	0
19.	07.00.05 - Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat tarixi	0	1	0	0	0
20.	07.00.06 - Arxeologiya	0	1	0	0	0
21.	07.00.08 - Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari	0	1	0	1 (Farg'ona politexnika instituti)	0
22.	08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi	0	1	0	0	0
23.	08.00.06 - Ekonometrika va statistika	0	1	0	0	1
24.	08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot	0	1	0	0	0
25.	09.00.03 - Falsafa tarixi	0	1	0	1 (Farg'ona politexnika instituti)	0
26.	09.00.04 - Ijtimoiy falsafa	0	1	0	1 (Farg'ona politexnika instituti)	0
27.	10.00.01 - O'zbek tili	1	4	0	0	0
28.	10.00.02 - O'zbek adabiyoti	1	4	0	1 (Qo'qon davlat pedagogika instituti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali)	0
29.	10.00.04 - Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti	0	2	0	0	0
30.	10.00.06 - Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimonshunoslik	0	4	0	2 (Andijon davlat pedagogika instituti, Farg'ona politexnika instituti)	0
31.	10.00.08 - Folklorshunoslik	0	1	0	0	0
32.	10.00.11 - Til nazariyasi. Amaliy kompyuter lingvistikasi	0	4	0	1 (Andijon davlat pedagogika instituti, Farg'ona politexnika instituti)	1
33.	11.00.02 - Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya	1	2	0	1 (Termiz davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti)	0
34.	13.00.01 - Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi	1	4	0	2 (Toshkent texnika universiteti Qo'qon filiali, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Farg'ona politexnika instituti, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg'ona filiali)	1
35.	13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)	1	10	0	3 (Toshkent texnika universiteti Qo'qon filiali, Farg'ona politexnika instituti)	0
36.	19.00.05 - Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya	0	1	0	0	0
37.	22.00.02 - Ijtimoiy tuzilish, ijtimoiy institutlar va turmush tarzi	0	1	0	0	0
<b>Jami:</b>		<b>7</b>	<b>80</b>	<b>1</b>	<b>23</b>	<b>8</b>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 5117-sonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risida Nizom"ning 16, 18-20-bandlariga asosan

#### Tayanch doktoranturaga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

- magistr darajasiga yoxud klinik ordinatorani tugatgan (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) ega bo'lganlar;
- falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy natijalar, shu jumladan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida bitta maqola hamda tegishli yo'nalishlar bo'yicha ikkitadan kam bo'lmagan ilmiy ishlar to'plamlariga kiritilgan ma'ruza tezislariga ega bo'lganlar;
- talabgor milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi. Bunda, filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo'nalishlari bo'yicha esa B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risida Nizom"ning 19-20-bandlariga asosan

#### Doktoranturaga quyidagilarga ega bo'lganlar qabul qilinadi:

- fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan xorijiy mamlakatlarda olingan ilmiy darajalar;
- fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olgandan so'ng muhim ilmiy yutuqlarga erishish, shu jumladan, fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya tadqiqoti asosini tashkil qilishi mumkin bo'lgan ilmiy jurnallarda chop etilgan kamida uchta ilmiy maqolaga hamda ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar va tegishli ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ilmiy ishlar to'plamlarida kamida ikkita tezisga ega bo'lganlar;
- talabgor milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatga ega bo'lishi. Bunda, filologiya yo'nalishlari bo'yicha kamida C1 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat, nofilologik yo'nalishlari bo'yicha esa B2 darajadagi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikat talab etiladi.

**Oliy ta'limdan keyin ta'lim institutiga kirmoqchi bo'lgan nomzodlar 15-oktabrga qadar Innovatsion rivojlanish vazirligining phd.mininnovention.uz platformasida ro'yxatdan o'tgan holda hujjatlarini joylaydilar hamda asl nusxalarini universitetning ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limiga olib kelib beradilar.**

#### Tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ariza;
- pasport;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomini yoki klinik ordinatorani tugatganlik (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun, mustaqil izlanuvchilik institutiga talabgorlar uchun kamida 2 yil ilmiy-pedagogik ish staji);
- tavsifnoma (mustaqil izlanuvchilik institutiga talabgorlar uchun)

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

#### Doktoranturada o'qishga talabgorlar quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ariza;
- pasport;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- oliy ma'lumot, fan nomzodi yoxud falsafa doktori (PhD) yoki xorijiy davlatlarda unga tenglashtirilgan ilmiy darajaga ega bo'lganligi to'g'risidagi diplom nusxasi;
- tadqiqot mavzusi bo'yicha ilmiy ma'ruza va fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi rejasining mufassal loyihasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari.
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim to'g'risida Nizom"ning 16, 18-20-bandlari hamda 2019-yil 19-iyuldagi 606-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi to'g'risida Nizom"ga asosan

#### Maqsadli tayanch doktoranturada o'qishga talabgorlar OTMga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

- ariza;
- pasport;
- buyurtmachi tashkilot birinchi rahbari tomonidan imzolangan maqsadli doktoranturaga kirish uchun nomzodlarga berilgan tavsiyanoma;
- qisqacha biografik ma'lumotnoma;
- oliy ta'lim muassasasi magistraturasi diplomini yoki klinik ordinatorani tugatganlik (tibbiyot fanlari uchun), oliy ma'lumot (mutaxassislik dasturlari bo'yicha) to'g'risidagi diplom nusxasi;
- nashr etilgan ilmiy ishlar ro'yxati, shuningdek ularning nusxalari;
- mehnat daftarchasining belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxasi (ishlayotgan talabgorlar uchun).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi sohiblari tegishli hujjat nusxasini taqdim etadilar.

Tayanch doktorantura (PhD), doktorantura (DSc), maqsadli tayanch doktorantura (PhD) ga talabgorlar uchun mutaxassislik va chet tili fanlaridan kirish imtihonlari **2022-yilning 1-25-noyabr** kunlari bo'lib o'tadi.

**Hujjatlar quyidagi manzilda qabul qilinadi:** Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, Farg'ona davlat universiteti ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi.

**Murojaat uchun telefon:** (90) 779-21-81.

<p>Farfona politexnika instituti huquqida Farfona sanoat va xizmat kўrsatish texnikumi (sobik Farfona ijtimoiy-iqtisodiy kolleji)ni 2009 yilda tamomlagan Ortıkov Şamıddın Şuxratjonovı nomıga berılłan K 1361218 raqamlı diplom iуkolıanlıđı sabablı</p> <p><b>BEKOP QILINADI.</b></p>	<p>Farfona solıq texnikumi (sobik Farfona solıq kolleji)-ni 2010 yilda tamomlagan Pułatova Saodatxon Bahtıerovna nomıga berılłan K 0123518 raqamlı diplom iуkolıanlıđı sabablı</p> <p><b>BEKOP QILINADI.</b></p>
<p>Farfona solıq texnikumi (sobik Farfona solıq kolleji)-ni 2010 yilda tamomlagan Pułatova Saodatxon Bahtıerovna nomıga berılłan K 0123518 raqamlı diplom iуkolıanlıđı sabablı</p> <p><b>BEKOP QILINADI.</b></p>	<p>Yakka tartıbdı tadbırkor Azamov Lazız Axmadjon uđlı nomıga berılłan dumalok muhr iуkolıanlıđı sabablı</p> <p><b>BEKOP QILINADI.</b></p>

